

UO‘K(UDC, YDK): 82.03:821.512

## TARJIMA TRANSFORMATSIYASI HAQIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLAR<sup>17</sup>

**Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich**

*filologiya fanlari doktori, prof.v.b.*

*Urganch davlat universiteti*

*Xorijiy filologiya fakulteti dekani*

*E-mail: [zohid@urdu.uz](mailto:zohid@urdu.uz)*

**Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch*

*davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi*

*E-mail: [sherzodbeksarodbekov@gmail.com](mailto:sherzodbeksarodbekov@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0002-8401-513X*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjima transformatsiyasi tushunchasining ilmiy-nazariy evolyutsiyasi davriy tasnif asosida tahlil qilingan. Maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni nomlash borasida G‘arb va Sharq tarjimashunoslik maktablarida shakllangan ikki xil ilmiy an‘ana qiyoslandi: ingliz tilshunosligi traditsiyasida “translation shift” (R. Jakobson, J.-P. Vinay va J. Darbelnet, J. Katford), sobiq sovet va MDH tarjimashunosligida esa “transformatsiya” (A. Fedorov, Ya. Retsker, L. Barxudarov, V. Komissarov, A. Shveytser) atamaları ostida o‘rganilgan g‘oyalari tahlilga tortildi. Tasviri va tarixiy-qiyosiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan holda, turli davrlarda ilgari surilgan transformatsiya tizimlarining o‘zaro umumiy va farqli jihatlari, shuningdek turli til an‘analarida bir-birini takrorlovchi va takrorlanmaydigan, yangi ilmiy yondashuvlar aniqlandi. Maqolada R. Jakobsonning uch turli tarjima tasnifi (intralingual, interlingual va intersemiotik), Vinay va Darbelnetning yetti bosqichli model (borrowing, calque, literal translation, transposition, modulation, equivalence, adaptation), hamda J. Katfordning level shift va category shift tasnifi batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida tarjima nazariyasining rivojlanish bosqichlari yanada aniqlashtirildi va amaliyotda sifatli tarjimani ta‘minlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ishonchli transformatsiya turlari taqdim etildi. Shuningdek, maqolada o‘zbek tarjimashunosligida bu masalaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllanish va rivojlanish jarayoni ham yoritib o‘tildi, bu esa milliy tarjimashunoslik maktabining xalqaro nazariy maydondagi o‘rnini ko‘rsatish imkonini berdi.

### KALIT SO‘ZLAR

Tarjima, transformatsiya, tasnif, qiyosiy tahlil, davriy tasnif, tarjima nazariyasi, evolyutsiya, semantik, pragmatik va stilistik o‘zgarishlar.

**Received:** June 10, 2026

**Accepted:** June 19, 2026

**Available online:** September 5, 2026

<sup>17</sup> For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Jumaniyozov Z., Sarodbekov Sh. Tarjima transformatsiyasi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 282-296.

## THEORETICAL PERSPECTIVES ON TRANSLATION TRANSFORMATIONS

**Jumaniyozov Zokhid Otaboyevich**

*Doctor of Philological Sciences, Acting Professor*

*Dean of the Foreign Philology Faculty*

*Urgench State University*

*E-mail: [zohid@urdu.uz](mailto:zohid@urdu.uz)*

**Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich**

*The teacher of the*

*Urganch state university*

*E-mail: [sherzodbeksardorbekov@gmail.com](mailto:sherzodbeksardorbekov@gmail.com)*

*ORCID ID: 0009-0002-8401-513X*

---

### ABSTRACT

This article analyzes the scientific-theoretical evolution of the concept of translation transformation on the basis of a periodized classification. The article compares two distinct scholarly traditions that have shaped how changes occurring in the translation process are designated in Western and Eastern schools of translation studies: in the English linguistic tradition, the term “translation shift” (R. Jakobson, J.-P. Vinay and J. Darbelnet, J. Catford), and in the translation studies of the former USSR and CIS countries, the concepts examined under the term “transformation” (A. Fedorov, Ya. Retsker, L. Barkhudarov, V. Komissarov, A. Shveytser). Using descriptive and historical-comparative research methods, common and distinctive features of the transformation systems proposed in different periods were identified, along with overlapping and non-repeating, novel scientific approaches found across different linguistic traditions. The article provides a detailed analysis of R. Jakobson’s three-part classification of translation (intralingual, interlingual, and intersemiotic), Vinay and Darbelnet’s seven-element model (borrowing, calque, literal translation, transposition, modulation, equivalence, adaptation), and J. Catford’s classification of level shifts and category shifts. As a result of the study, the stages in the development of translation theory have been further clarified, and reliable types of translation transformations that can be applied to ensure high-quality translation in practice have been presented. Furthermore, the article highlights the process of formation and development of this issue in Uzbek translation studies as an independent object of research, which makes it possible to show the place of the national school of translation studies within the international theoretical landscape.

---

### KEYWORDS

Translation, transformation, classification, comparative analysis, chronological classification, translation theory, evolution, semantic, pragmatic and stylistic changes.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПЕРЕВОДЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ

**Джуманиязов Захид Отабаевич**

*Доктор филологических наук,  
исполняющий обязанности профессора,  
декан факультета зарубежной филологии  
Ургенский государственный университет*  
E-mail: [zohid@urdu.uz](mailto:zohid@urdu.uz)

**Сародбеков Шерзодбек Сафорбоевич**

*преподаватель Ургенского  
государственного университета*  
E-mail: [sherzodbeksardorbekov@gmail.com](mailto:sherzodbeksardorbekov@gmail.com)  
ORCID ID: 0009-0002-8401-513X

| АННОТАЦИЯ                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА                                                                                                                                                         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>В данной статье на основе периодизированной классификации прослеживается научно-теоретическая эволюция понятия переводческой трансформации. Сопоставляются две научные традиции (западной и восточной школ переводоведения), в рамках которых сформировались различные подходы к обозначению изменений, происходящих в процессе перевода: в англоязычной лингвистической традиции, используется термин «переводческий сдвиг» (Р. Якобсон, Ж.-П. Вине и Ж. Дарбельне, Дж. Кэтфорд), а в переводоведении бывшего СССР и стран СНГ – термин «трансформация» (А. Фёдоров, Я. Рецкер, Л. Бархударов, В. Комиссаров, А. Швейцер). С применением описательного и историко-сравнительного методов в исследовании выявлены общие и различительные особенности систем трансформаций, предложенных в разные периоды, а также сходства и несовпадения между новыми научными подходами, сформировавшимися в различных лингвистических традициях. В статье подробно проанализированы трёхчастная классификация перевода Р. Якобсона (внутриязыковой, межъязыковой и интерсемиотический), семикомпонентная модель Вине и Дарбельне (заимствование, калькирование, дословный перевод, транспозиция, модуляция, эквивалентность, адаптация), а также выделение уровневых смещений («level shift») и сдвигов по категориям («category shift») Дж. Кэтфорда. В результате исследования уточнены этапы развития теории перевода и определены обоснованные типы переводческих трансформаций, которые могут применяться на практике для обеспечения качества перевода. Также в статье освещается процесс становления и развития исследований по данной проблематике как самостоятельному объекту научного изучения в узбекском переводоведении, что позволяет определить место национальной школы переводоведения в международном теоретическом пространстве.</p> | <p>Перевод, трансформация, классификация, сравнительный анализ, периодизация, теория перевода, эволюция, семантические, прагматические и стилистические изменения.</p> |

## KIRISH

Tarjima jarayoni tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqotning ajralmas qismi bo'lib, unda tarjima transformatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Tarjima transformatsiyasi tushunchasi tarjimaning lingvistik asoslarini o'rganishda markaziy kategoriyalardan biri sifatida shakllangan. Ushbu atama XX asrning o'rtalaridan boshlab ko'plab tarjimashunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Dastlabki tadqiqotlarda transformatsiya tarjima jarayonidagi lingvistik o'zgarishlar sifatida talqin etilgan bo'lsa, keyinchalik bu tushuncha kengayib, semantik, pragmatik va stilistik o'zgarishlarni ham qamrab ola boshladi. Turli davrlarda yaratilgan tasniflarda olimlarning yondashuvlari bir-biridan farq qilgani, ayrim hollarda esa ularning g'oyalari o'zaro yaqinlashgani kuzatildi. Bu holat tarjima transformatsiyalarining davriy tasnifini shakllantirish zaruratini tug'dirdi. Mazkur maqolada tarjima transformatsiyalari yoki o'zgarishlarining turli davrlardagi tasniflari o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqliklari va qarama-qarshiliklari tahlil qilindi. Shuningdek, transformatsiyalar tizimidagi umumiy va yangi unsurlar qiyosiy tahlil asosida aniqlandi. Tadqiqot natijasida tarjima transformatsiyalarining evolyutsion rivojlanish yo'nalishlari aniqlanib, tarjima nazariyasi uchun yangi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## ASOSIY QISM

Ta'kidlash joizki, tarjima transformatsiyasi atamasi XX asrning o'rtalaridan boshlab butun dunyo tarjimashunos olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Tarjimashunos olimlar tarjima transformatsiyasini ikki tildagi ekvivalent matnni yaratishdagi asosiy omil sifatida baholab o'z tadqiqotlarida unga doir fikrlarni bayon qilishgan. Olimlar tomonidan bildirilgan bir birini takrorlovchi fikrlar qatorida, ayni bir hodisani turli atamalar bilan atash holatlari ham kuzatiladi. Bunga misol tariqasida tarjima jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni G'arbda va Sharqda turlicha atamalar bilan nomlash holatini keltirib o'tish mumkin. G'arbda, asosan ingliz tarjimashunosligida, bu hodisaga nisbatan *translation shift* atamasi qo'llanilgan bo'lsa, nisbatan sharqroqda mavjud bo'lgan sobiq SSSR davlatida va keyinchalik MDH davlatlarida mazkur hodisaga nisbatan *tarjima transformatsiyasi*

atamasi keng qo'llanilgan va hozir ham qo'llanilishda davom etmoqda. Tarjima transformatsiyasi tushunchasi rus tilshunosligi an'anasida shakllangan bo'lsa, *translation shift* atamasi ingliz tilidagi tarjimashunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlarda qo'llaniladi. Ammo bular ikkalasi ham bir maqsadga – asliyat tilidagi matnni tarjima tiliga o'tkazishda matnda sodir bo'ladigan strukturaviy, semantik yoki stilistik o'zgarishlarni nomlash va tahlil qilishga qaratilgan. Quyida bu ikki tushunchaning G'arbda va Sharqda o'rganilishi va rivojlanishi davriy ketma-ketlikda ko'rsatib o'tildi.

Tarjima transformatsiyasi haqidagi dastlabki ilmiy izlanishlar R. Jakobson tomonidan olib borilgan bo'lib, u "On Linguistic Aspects of Translation" nomli maqolasida tarjimani interlingual, intralingual va intersemiotik turlarga ajratgan hamda tarjimada ma'no o'zgarishlari til tizimi farqlariga bog'liq ekanini ta'kidlagan (Jakobson R., 1959, 233). Jakobsonning bu yondashuvi tarjimaning tilshunoslik asoslarini belgilab berdi.

Shundan so'ng, J.-P. Vinay va J. Darbelnet o'zlarining "*Stylistique comparée du français et de l'anglais*" nomli tadqiqot ishida tarjimada qo'llaniladigan asosiy jarayonlarni – borrowing (o'zlashtirish), calque (kalkalash), literal translation (to'g'ridan to'g'ri tarjima), transposition (transpozitsiya), modulation, equivalence (ekvivalentlik), adaptation (moslashtirish)– tizimlashtirdilar (Vinay J.-P., Darbelnet J., 1958, 30-42). Ularning yondashuvi tarjima jarayonidagi o'zgarishlarni amaliy tahlil vositasiga aylantirib, keyingi transformatsiya nazariyasiga poydevor yaratdi.

J. C. Katford o'zining "*A Linguistic Theory of Translation*" (1965) asarida birinchi bo'lib "translation shifts" atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. U tarjimadagi o'zgarishlarni *level shifts* (til darajalari o'rtasidagi o'zgarishlar) va *category shifts* (turkum, birlik yoki shakl o'zgarishlari) sifatida tasniflagan (Catford J. C., 1965, 73-79). J. Katfordning bu yondashuvi tarjima jarayonining strukturaviy tahlilini chuqurlashtiradi va hozirgi kungacha ko'plab tadqiqotlarda asosiy nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

1960-1990-yillar oralig'ida tarjima transformatsiyasi nazariyasi turli maktablar tomonidan kengaytiriladi. E. Nida o'zining "*Toward a Science of*

*Translating*” asarida tarjimada “dynamic equivalence” tushunchasini ilgari surdi va tarjimonning matn ma’nosini yetkazishdagi psixolingvistik yondashuvi haqidagi fikrlarini bayon qiladi (Nida E. A., 1964, 159-162). P. Newmark esa “*A Textbook of Translation*” asarida semantik va kommunikativ tarjima o’rtasidagi farqni ajratib, transformatsiyalarni maqsadga yo’naltirilgan tanlov deb izohlagan (Newmark P., 1988, 45-47). Shu davrda G. Toury o’zining “*Descriptive Translation Studies and Beyond*” nomli ishida tarjimani ijtimoiy-madaniy “norma”lar bilan bog’lab, transformatsiyalarni deskriptiv (tasviriy) tahlil doirasida o’rgandi (Toury G., 1995, 25-33).

1990-yillarning oxiridan boshlab M. Baker korpus lingvistikasiga asoslangan tarjima tadqiqotlarini yo’lga qo’ydi. U “*Text and Technology: In Honour of John Sinclair*” to’plamida korpus yondashuvi tarjima transformatsiyalarini empirik ravishda o’rganish imkonini berishini ta’kidlaydi (Baker M., 1993, 240-242). Bu yondashuv tarjimadagi leksik, grammatik va pragmatik o’zgarishlarni statistik tahlil qilishga yo’l ochdi.

Zamonaviy davrda L. Molina va A. Hurtado Albir “*Translation Techniques Revisited*” (2002) nomli maqolalarida transformatsiyalarni amaliy jihatdan tizimlashtirib, 18 xil tarjima texnikasini belgilab berdilar (Molina L., 2002, 499-501). Ularning yondashuvi transformatsiyani nazariy tushunchadan amaliy vositaga aylantirdi. So’nggi yillarda esa tarjima transformatsiyalari neural machine translation (NMT) tizimlari kontekstida, mashina tarjimalaridagi leksik-grammatik o’zgarishlarni inson tarjimasi bilan qiyoslash orqali o’rganilmoqda (Koller W., 1995, 215-218).

Sharqda dastlab tarjima jarayoni til tizimlari o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik sifatida o’rganilgan bo’lib, bu boradagi ilk izlanishlar rus tarjimashunosligi maktabida olib borilgan. A. V. Fedorov o’zining “*Введение в теорию перевода*” asarida tarjimani “til tizimlari o’rtasidagi o’zaro ta’sir jarayoni” deb ta’riflab, tarjimashunoslikni mustaqil ilmiy yo’nalish sifatida asoslab berdi (Фёдоров А. В., 1953, 34-36).

Shundan so'ng Ya.I. Retsker “Озакономерных соответствиях при переводе” (1966) asarida tarjimada “mos keluvchi birliklar” (соответствия) nazariyasini ishlab chiqdi va tarjimada ma'no ekvivalentligi tushunchasini ilgari surdi (Рецкер Я. И., 1966, 47-49). Bu davrda “transformatsiya” termini hali qo'llanilmagan bo'lsa-da, tarjimada lingvistik o'zgarishlar g'oyasi shakllana boshladi.

1960–1970-yillarda tarjima nazariyasiga “transformatsiya” tushunchasi bevosita kirib keldi. L. S. Barkhudarov o'zining “Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)” kitobida tarjimada leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalarni ajratib ko'rsatdi hamda tarjimani “semantik o'zgarishlar orqali ma'noni yetkazish” jarayoni sifatida ta'rifladi (Бархударов Л. С., 1975, 78-82). Shu davrda V. N. Komissarovning “Теория перевода (лингвистические аспекты)” (1990) asarida ham tarjima transformatsiyalari grammatik, leksik, stilistik va kompleks turlarga ajratilib, tarjima jarayoni ikki bosqichli model asosida tushuntirildi (Комиссаров В. Н., 1990, 91-93).

Keyinchalik, tarjima transformatsiyasi nazariyasi yanada tizimlashtirildi. A. D. Shveytser “Теория перевода: статус, проблемы, аспекты” asarida tarjimani nutq faoliyatining bir turi sifatida baholab, transformatsiyalarni **kommunikativ ekvivalentlik** tamoyiliga asoslab tahlil qildi (Швейцер А. Д., 1998, 57-60).

G'arb ilmida esa J. C. Katford “A Linguistic Theory of Translation” (1965) asarida “translation shift” terminini birinchi bo'lib ilmiy muomalaga kiritgan. Biroq bu termin to'g'ridan-to'g'ri rus tarjimashunosligidagi “transformatsiya” tushunchasining ekvivalenti emas, balki tarjima jarayonidagi grammatik va kategoriyaviy o'zgarishlarga oid mustaqil yondashuv sifatida shakllangan.

O'zbek tarjimashunosligida bu masalaga bo'lgan qiziqish 2000-yillarda shakllana boshladi. I. G'afurov, N. Qambarov, O'. Mo'minovlar “Tarjima nazariyasi” o'quv qo'llanmasida tarjima transformatsiyalarini ikkita alohida bo'limlarda leksik va grammatik transformatsiyalarga ajratgan holda o'rganishgan hamda ularni tarjimada g'aliz birliklardan qochish vositasi sifatida ko'rishgan (G'afurov I., 2012, 108).

Shunday qilib, tarjima transformatsiyasi haqidagi qarashlar dastlab rus tarjimashunosligida lingvistik asosda shakllanib, keyinchalik o'zbek ilmiy maktabida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida rivojlandi. Bugungi kunda ushbu masala tarjimada ekvivalentlikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida o'rganilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishida diaxronik tadqiqot metodlaridan tasviriy hamda tarixiy-qiyosiy metodlar (Rasulov R., 2010, 256-275) qo'llanildi. Tadqiqotda tasviriy metodni qo'llash orqali tarjima transformatsiyasi turlarini ifodalovchi terminlar sinxron tarzda tekshirilib tavsiflandi. Tarixiy-qiyosiy metodni orqali terminlar paydo bo'lishi hamda tarixan rivojlanishi tahlil qilindi.

Tarjima jarayonining ilmiy tahlili bilan shug'ullangan tilshunos R. Jakobson o'zining "*On Linguistic Aspects of Translation*" (1959) nomli maqolasida tarjimaning uch turini ajratib ko'rsatgan: intralingual, interlingual va intersemiotic translation. Unga ko'ra, tarjima jarayoni faqat tillararo emas, balki bir til ichidagi va turli belgilar tizimlari o'rtasidagi ma'no o'zgarishlarini ham o'z ichiga oladi.

Intralingual translation (ichki tarjima) – bu bir tildagi ma'no birliklarini o'sha tilning boshqa birliklari orqali qayta ifodalash jarayonidir. Ya'ni, bu turdagi tarjimada so'z yoki iboraning ma'nosi saqlangan holda uning shakli o'zgartiriladi. Jakobson buni "interpretation of verbal signs by means of other signs of the same language" ("til birliklarini shu tilning boshqa belgilar tizimi orqali talqin etish") deb izohlaydi. Masalan, ingliz tilidagi *child* so'zini *young boy* shaklida ifodalash – intralingual tarjima namunasidir. Bu turdagi o'zgarishlar asosan izohli lug'atlar, parafrazalar va til o'rgatish jarayonlarida qo'llanadi.

Interlingual translation (tillararo tarjima) esa Jakobson tomonidan "translation proper", ya'ni asl tarjima sifatida baholanadi. Bu jarayonda matn bir tildan boshqa tilga o'tkaziladi. Uning fikriga ko'ra, tillar orasida to'liq ekvivalentlik mavjud emas, shuning uchun tarjimon har doim interpretativ yondashuv orqali ma'noni uzatadi. Masalan, "*Good morning*" iborasining o'zbek tiliga "*Xayrli tong*" deb tarjima qilinishi interlingual tarjimaga misol qilib ko'rsatilishi mumkin. Shu sababli bu

turdagi tarjimada leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Intersemiotic translation (belgilararo tarjima) – bu verbal belgilar tizimini noverbal, ya'ni boshqa semiotik tizimga o'tkazish jarayonidir. Jakobson uni "interpretation of verbal signs by means of signs of nonverbal sign systems" deb ta'riflaydi. Bunga adabiy asarning kinoga moslashtirilishi, she'rning musiqaga aylantirilishi yoki matn asosida rasm yaratilishi kiradi. Masalan, E. Xemingueyning *"The Old Man and the Sea"* asarining kinofilm sifatida taqdim etilishi, intersemiotik tarjimaning yorqin namunasi deya hisoblash mumkin.

R. Jakobson taklif etgan uch bosqichli tasnif tarjima nazariyasida transformatsiyalar tabiatini chuqurroq tushunish uchun asos bo'lib xizmat qildi. U matn o'zgarishlarini faqat leksik yoki grammatik darajada emas, balki semantik, kommunikativ va semiotik darajada ham kuzatish zarurligini ta'kidlagan. Shu tariqa keyingi yillarda bu yondashuv tarjima transformatsiyalari nazariyasi uchun muhim metodologik poydevorga aylandi.

Tarjima jarayonini lingvistik va stilistik jihatdan chuqur tahlil qilgan olimlar Jean-Paul Vinay va Jean Darbelnet o'zlarining mashhur "Stylistique comparée du français et de l'anglais" (1958) asarida tarjima amaliyotiga yangi tizimli yondashuv olib kirdilar. Ular tarjima jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni ikki asosiy yo'nalishda – direct (to'g'ridan-to'g'ri) va oblique (bilvosita) usullar orqali tavsifladilar.

Bu ikki yo'nalish tarjimaning turli darajalarda amalga oshadigan lingvistik va stilistik transformatsiyalarini qamrab oladi. Har ikki guruhga kiruvchi jami yetti turdagi tarjima jarayonlari quyidagilardir: borrowing (o'zlashtirish), calque (kalkalash), literal translation (so'zma-so'z tarjima), transposition (transpozitsiya), modulation (modulyatsiya), equivalence (ekvivalentlik) va adaptation (moslashtirish).

I. Direct Translation Methods (Bevosita tarjima usullari). Bu turdagi metodlarda manba va maqsad tillar o'rtasidagi strukturaviy o'xshashlik saqlanadi,

ya'ni tarjimon matnni grammatik va semantik jihatdan minimal o'zgarish bilan ko'chiradi.

1. Borrowing (o'zlashtirish) – manba tilidagi so'z yoki iboraning shaklan o'z holicha olingan varianti. Masalan, *“computer”* → *“kompyuter”*, *“pizza”* → *“pitssa”*. Bu usul aslyatdagi madaniy yoki terminologik birlikni saqlaydi.
2. Calque (kalkalash)– manbadagi ibora tarkibi so'zma-so'z tarjima qilinadi, lekin maqsad tilining grammatik qoidalariga moslashtiriladi. Masalan, inglizcha *“skyscraper”* iborasining *“osmon o'par bino”* deb tarjima qilinishi.
3. Literal translation (so'zma-so'z tarjima) – tilda grammatik va leksik moslik mavjud bo'lgan hollarda qo'llanadi. Masalan, *“She opened the door”* → *“Ueshikni ochdi”*. Biroq bu usul faqat tuzilma va ma'no bir-biriga mos kelgan holatlarda samarali bo'ladi.

II. Oblique Translation Methods (Bilvosita tarjima usullari). Bu usullar manba tilining strukturasi, semantikasi yoki madaniy konteksti maqsad tiliga to'liq mos kelmaganda qo'llanadi. Ular tarjimonni ijodkorlikka va interpretatsiyaga undaydi.

1. Transposition (transpozitsiya) – grammatik kategoriya yoki so'z turkumining o'zgarishidir. Masalan, inglizcha *“to decide”* fe'li o'zbekchada *“qaror qabul qilish”* deb nominal shaklda ifodalanadi.
2. Modulation (modulyatsiya) – fikrni boshqa nuqtayi nazardan ifodalash, ya'ni semantik burchakni o'zgartirish. Masalan, *“It is not difficult”* jumlasini *“Bu oson”* tarzida ifodalansa, bu modulyatsiya hisoblanadi.
3. Equivalence (ekvivalentlik) – manbadagi iborani maqsad tilida funksional jihatdan teng, lekin shaklan boshqacha ifoda bilan berish. Masalan, *“It's raining cats and dogs”* → *“Yomg'ir juda kuchli yog'moqda”*. Bu usul ibora va maqollar tarjimasida keng qo'llanadi.
4. Adaptation (moslashtirish)–madaniy tafovutni hisobga olib, manba tilidagi voqeani yoki atamani maqsad tiliga moslashtirish. Masalan, inglizcha *“Thanksgiving”* bayramining o'zbek tilida *“minnatdorchilik kuni”* tarzida berilishi.

J.P.Vinay va J.Darbelnetning yondashuvi tarjimada yuz beradigan o'zgarishlarni aniq tizimga solgan ilk ilmiy model hisoblanadi. Ularning metodlari keyinchalik J. Katfordning *translation shift* nazariyasiga va Molina & Albir (2002) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy tarjima texnikalari konsepsiyasiga asos bo'ldi.

Ularning qarashlariga ko'ra, har bir tarjima – bu tildagi birlikni boshqa tildagi mos shaklga o'tkazish emas, balki stilistik tizimlar o'rtasidagi ekvivalentlikni topish jarayonidir. Shu sababli, J.P.Vinay va J.Darbelnet konsepsiyasi tarjima transformatsiyalari nazariyasining amaliy poydevori sifatida e'tirof etiladi.

Tarjima jarayonining lingvistik asoslarini chuqur tahlil qilgan ingliz tilshunosi J. Katford (John Cunnison Catford) 1965-yilda nashr etilgan “A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics” asarida tarjimada sodir bo'ladigan o'zgarishlarni “translation shifts” atamasi orqali ilmiy muomalaga kiritdi (Catford J. C., 1965, 73-79). Bu yondashuv tarjima nazariyasida burilish yasab, tarjima jarayonini strukturaviy-lingvistik tizim asosida tushuntirishga imkon berdi.

Katfordning fikricha, tarjima – bu faqat so'zlarni almashtirish emas, balki bir til tizimidagi grammatik, semantik va funksional birliklarni boshqa til tizimidagi mos birliklar bilan strukturaviy jihatdan o'zgartirish jarayonidir. U tarjimada ro'y beradigan o'zgarishlarni ikki asosiy turga ajratadi: level shifts (darajaviy o'zgarishlar) va category shifts (turkumiy o'zgarishlar). Ushbu tasnif tarjimadagi lingvistik farqlarni aniqlashda aniq mezon bo'lib xizmat qiladi.

1) Level shifts (darajaviy o'zgarishlar) – bu tilning turli darajalari (fonetik, morfologik, sintaktik, leksik yoki semantik) o'rtasida yuz beradigan o'zgarishlardir. Ya'ni, bir tildagi grammatik yoki morfologik birlik boshqa tilda leksik yoki sintaktik vosita bilan ifodalanadi. Katford bu hodisani grammatika va leksika o'rtasidagi o'zaro aloqaning natijasi sifatida izohlaydi. Masalan, inglizcha “*He gave me a smile.*” (Misol muallifga tegishli: S.Sh.) jumlasini o'zbekchaga “*U kuldi.*” tarzida tarjima qilinganda, inglizcha jumlada fe'l birikmasi (“*gave a smile*”) ishlatilgan, bu sintaktik darajadagi ifoda vositasidir. O'zbekchada esa bu bitta fe'l – “*kuldi*” orqali berilgan. Bu sintaktik darajadan leksik darajaga o'tish holati bo'lib, Katford ta'rifi to'liq mos tushadi.

Demak, level shift– bu bir darajadagi ma’noni boshqa darajadagi birlik orqali uzatish vositasidir. Bunday transformatsiyalar tarjimada sintaktik soddalik va tabiiylikni ta’minlaydi.

2) Category shifts (turkumiy o’zgarishlar) – bu grammatik yoki sintaktik birliklar o’rtasidagi o’zgarishlarbo‘lib, J. Katford ularni to‘rtta kichik turga ajratdi:

a) Structure-shift (strukturaviy (sintaktik) o’zgarish)

Til birliklarining sintaktik tartibi yoki grammatik tuzilmasi o’zgaradi. Masalan: *The letter was written by the teacher.* o’zbekcha tarjima: *O‘qituvchi xat yozdi.* Ingliz tilida majhul nisbat (*was written*) ishlatilgan. O’zbek tilida esa aniq nisbat (*yoza*) bilan ifodalangan. Grammatik struktura majhuldan aniq nisbatga o’tgan, ma’no esa saqlangan. Bu structure-shiftning keng tarqalgan turidir. b) Class-shift (so‘z turkumi o’zgarishi). Bir tildagi so‘z turkumi tarjima jarayonida boshqa turkumga o’tadi. Masalan “*to decide*” fe’lning “*qaror*” o’zbek tilidagi ot shakliga aylanishida kuzatiladi. Bu yerda harakatni ifodalovchi fe’l otga aylangan, ya’ni fe’l → ottransformatsiyasi sodir bo‘lgan.

c) Unit-shift (til birliklari o’zgarishi). Til birliklari ierarxiyasidagi o’zgarish; ya’ni, so‘z → so‘z birikmasi, so‘z birikmasi → gap tarzida o’zgaradi. Masalan: “*He spoke softly*” → “*U past ovozda gapirdi*”. Ingliz tilidagi sifat (*softly*) o’zbek tilida otli birikma (*past ovozda*) shaklida berilgan.

d) Intra-system shift (tizim ichidagi o’zgarish). Ikkala tilda mavjud bo‘lgan grammatik kategoriyalar turlicha qo‘llaniladi. Masalan: “*Information*” (birlikda) → “*Ma’lumotlar*” (ko‘plikda). Bu yerda ikkala tilda ko‘plik kategoriyasi mavjud, lekin ularning qo‘llanish konteksti farq qiladi.

Katford o‘z nazariyasi orqali tarjimani empirik lingvistik jarayon sifatida izohladi. U tarjimadagi o’zgarishlarni an’anaviy semantik yoki ekvivalentlik nuqtai nazaridan emas, balki til tizimlari o’rtasidagi strukturaviy tafovutlar asosida tahlil qildi.

Uning yondashuvi deskriptiv tarjima nazariyasi (Descriptive translation studies) va keyinchalik komparativ lingvistika rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Garchi dalillar yetarli bo‘lmasa ham Katfordning qarashlari keyinchalik rus olimlari – L. S. Barkhudarov, V. N. Komissarov, A. D. Shveytser tomonidan yanada

takomillashtirilib tarjima transformatsiyasi sifatida taqdim qilingan bo'lishi mumkin. Ular Katfordning *category shift* modelini leksik, grammatik, stilistik va kompleks transformatsiyalar tizimiga asos qilib olgan bo'lishlari ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, Katfordning "shift" nazariyasi zamonaviy tarjimashunoslikda kognitiv, pragmatik, va madaniy transformatsiyalarni o'rganish uchun ham metodologik poydevor vazifasini o'tamoqda.

### XULOSA

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga nazariy umumlashma sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Katfordning translation shift (tarjima transformatsiyalari) haqidagi qarashlari tarjima jarayonini struktural tahlil modeli sifatida shakllantiradi. U J.P.Vinay va J.Darbelnet tomonidan ilgari surilgan amaliy protseduralarni lingvistik darajada mustahkamlab, tarjima o'zgarishlarini grammatik, semantik va sintaktik nuqtai nazardan izohlab berdi. Shu sababli, Katford konsepsiyasi tarjima nazariyasining ilmiy tizimlilik va empirik asoslanganligini ta'minladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker M. Corpus Linguistics and Translation Studies — Implications and Applications // Text and Technology: In Honour of John Sinclair / ed. M. Baker, G. Francis, E. Tognini-Bonelli. — Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1993. — P. 233–250. — DOI: 10.1075/z.64.15bak.
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. — Москва: Международные отношения, 1975. — 237 с.
3. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. — London: Oxford University Press, 1965. — 103 p.
4. Федоров А. В. Введение в теорию перевода: учеб. пособие для ин-тов иностр. яз. — Москва: Изд-во литературы на иностранных языках, 1953. — 336 с.
5. Gafurov I., Mo'minov O'., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.

6. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation / ed. R. A. Brower. – Cambridge, MA; London: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239. – DOI: 10.4159/harvard.9780674731615.c18.
7. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
8. Koller W. The Concept of Equivalence and the Object of Translation Studies // Target: International Journal of Translation Studies. – 1995. – Vol. 7, № 2. – P. 191–222. – DOI: 10.1075/target.7.2.02kol.
9. Molina L., Hurtado Albir A. Translation Techniques Revisited: A Dynamic and Functionalist Approach // Meta: Journal des traducteurs. – 2002. – Vol. 47, № 4. – P. 498–512. – DOI: 10.7202/008033ar.
10. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice-Hall International, 1988. – 292 p.
11. Nida E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.
12. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2010. – 182 b.
13. Рецкер Я. И. О закономерных соответствиях при переводе. – Москва: Высшая школа, 1966.
14. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты / отв. ред. В. Н. Ярцева; АН СССР, Ин-т языкознания. – Москва: Наука, 1988. – 214, [1] с.
15. Toury G. Descriptive Translation Studies – and Beyond. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – VIII, 311 p.
16. Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation / trans. and ed. J. C. Sager, M.-J. Hamel. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995.

## REFERENCES

1. Baker, M. (1993). Corpus linguistics and translation studies: Implications and applications. In M. Baker, G. Francis, & E. Tognini-Bonelli (Eds.), *Text and technology: In honour of John Sinclair* (pp. 233–250). John Benjamins.

2. Barkhudarov, L. S. (1975). *Language and translation: Issues of general and specific translation theory*. International Relations.
3. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. Oxford University Press.
4. Fedorov, A. V. (1953). *Introduction to translation theory*. Publishing House of Literature in Foreign Languages.
5. Gafurov, I., Qambarov, N., & Muminov, O. (2012). *Translation theory*. Tafakkur Boʻstoni.
6. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R. A. Brower (Ed.), *On translation* (pp. 232–239). Harvard University Press.
7. Komissarov, V. N. (1990). *Translation theory (linguistic aspects)*. Higher School.
8. Koller, W. (1995). The concept of equivalence and the object of translation studies. *Target: International Journal of Translation Studies*, 7(2), 191–222. <https://doi.org/10.1075/target.7.2.02kol>
9. Molina, L., & Albir, A. H. (2002). Translation techniques revisited: A dynamic and functionalist approach. *Meta: Journal des Traducteurs*, 47(4), 498–512. <https://doi.org/10.7202/008033ar>
10. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
11. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. E. J. Brill.
12. Rasulov, R. (2010). *General linguistics*. Fan va texnologiya markazi.
13. Retzker, Ya. I. (1966). *On regular correspondences in translation*. Higher School.
14. Shveitser, A. D. (1988). *Translation theory: Status, problems, aspects*. Nauka.
15. Toury, G. (1995). *Descriptive translation studies and beyond*. John Benjamins.
16. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J. C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). John Benjamins. (Original work published 1958)